

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK - TEXNOLOGIYA INSTITUTI
«Yengil sanoat texnologiyasi»
fakulteti
«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» kafedrası

Himoyaga ruxsat etildi
Fakultet dekani
_____ U. Meliboyev
«__»_____ 2016 yil

5321200-“Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” ta’lim yo’nalishi
bo’yicha bitiruvchi

Mannobov Muxammadkodir Sharobiddin o’g’lining
“Quva PTKda yirik iflosliklardan tozalovchi uskunani takomillashtirish”
mavzusidagi

Bitiruv malaka ishi

Bitiruvchi: _____ M. Mannabov

Ilmiy rahbar: _____ X. Sharipov

Kafedra mudiri: _____ M. Tojiboyev

Namangan - 2016 y.

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

“Yengil sanoat texnologiyasi” fakulteti

«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» kafedrası

“Tasdiqlayman” _____

Kafedra mudiri M. A. Tojiboyev

2015 yil “11” yanvar

5321200-«Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi» ta’lim yo’nalishi
8au-12 guruhi talabasi Mannobov Muxammadkodir Sharobiddin o’g’liga

Bitiruv malaka ishi bo’yicha topshiriq

1. Bitiruv malaka ishining mavzusi “Quva PTKda yirik iflosliklardan tozalovchi uskunani takomillashtirish” 2015 yil “31” dekabrda Nam MTI rektorining № sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.
2. Bitiruv malaka ishini topshirish muddati- “ ” iyul 2016 yil
3. Bitiruv malaka ishini bajarishga doir boshlang'ich ma'lumotlar
Quva PTK biznes rejasi, Bosh bino sxemasi
4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yhati).

Kirish

Texnologik qism

Mexanika qism

Mehnat muhofazasi

Iqtisodiy qism

5. Chizma ishlar ro'yhati (chizmalar nomi aniq ko'rsatiladi)
 1. Quva paxta tozalash korxonasining bosh rejasi
 2. Quritish tozalash bo'limi sxemasi
 3. Quva paxta tozalash korxonasining texnologik jarayoni
 4. Takomillashtirilgan ishchi qismlar ko'rinishi
 5. Taklif qilinayotgan tozalash mashinasi sxemasi
 6. Iqtisodiy samaradorlik hisobi

6. Bitiruv malaka ishi bo'yicha maslahatchilar

№	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi F. I. SH.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi
1	Kirish	X. Sharipov	11.01.2015	05.02.2016
2	Texnologik qism	X. Sharipov	18.01.2016	30.04.2016
3	Mexanika qism	X. Sharipov	31.03.2016	25.05.2016
4	Mehnat muhofazasi	A. Bobomatov	13.05.2016	27.05.2016
5	Iqtisodiy qism	O. Kozokov	02.06.2016	02.06.2016

Topshiriqlar to'liq bajarildi _____ X. Sharipov

7. Bitiruv malaka ishini bajarish rejasi

№	Bitiruv malaka ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	Kirish	05.02.2016	
2	Texnologik qism	30.04.2016	
3	Mexanika qism	25.05.2016	
4	Mehnat muhofazasi	27.05.2016	
5	Iqtisodiy qism	02.06.2016	

Bitiruv malaka ishi rahbari: _____ X. Sharipov

Topshiriqni bajarishga oldim: _____ M. Mannabov

Topshiriq berilgan sana: 2016 yil "11 " yanvar

Himoyaga ruxsat: 2016 yil " " iyul

Kafedra mudiri: _____ M. Tojiboyev

Mundarija

Kirish	
Texnologik qism	
Mexanika qismi	
Mehnat muhofazasi qismi	
Iqtisodiy qism	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar	
Ilovalar	

KIRISH

Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi, bu boradagi jarayonni yanada kuchaytirish uchun yangi va yanada keng imkoniyatlar ochib bermoqda. Ushbu dasturiy hujjatga muvofiq iqtisodiyotni erkinlashtirishni jadallashtirishga qaratilgan qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda, Iqtisodiyotimiz shu jumladan paxta tolasini yetishtirish hamda to'qimachilik kabi muhim tarmoqlar raqobatbardoshligini yanada oshirishga doir aniq maqsadli chora-tadbirlar hayotga tadbqiq etilmoqda.[2]

Davlatimizning eng asosiy maqsadi xalqning moddiy, madaniy va ma'naviy hayot darajasini ko'tarish, erkin bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyotni qurish, xalqimiz uchun obod va farovon hayot barpo etish, xalqaro maydonda o'zimizga munosib o'rin egallashdan iboratdir.

O'zbekiston – Jahon bozoriga ishonchli va barqaror paxta yetkazib beruvchi mamlakatdir. Mamlakatimiz paxta tolasini sifatini oshirishga doimiy e'tibor qaratgani holda bu sohaga oid barcha xalqaro tadbirlarda faol ishtirok etmoqda, paxta yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish, yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega paxta tolasini ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltiriladigan sarmoyalar hajmini oshirmoqda.

Mamlakatimizda eng yuqori jahon talablariga javob beradigan paxta mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bo'yicha tashkil qilingan zamonaviy kompleks iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga xizmat qilayotir. Bunday yutuqlarga davlatimiz rahbari Vatanimiz mustaqilligining ilk yillaridan sobiq tuzumdan meros qolgan xom ashyo yetkazib berishga yo'naltirilgan bir yoqlama iqtisodiyotni tubdan o'zgartirish vazifasini qo'ygani samarasida erishilmoqda. Iqtisodiyotning paxta va to'qimachilik tarmog'i ham jadal rivojlanmoqda. Mazkur jarayon ilgari bo'lgani kabi paxta maydonlarini kengaytirishning ekstensiv uslublariga emas, balki zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash hisobidan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, jahon talablariga to'la javob beradigan yangi paxta navlarini joriy etish, paxtakorlar – fermer va dehqonlar uchun barcha zarur moddiy-texnik

sharoitlarni yaratish, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda davlat xaridlarini ta'minlashga asoslangan. Chuqur tarkibiy tub o'zgarishlar amalga oshirildi, ishlab chiqarishning barcha bo'g'inlari modernizatsiya qilindi, texnik va texnologik qayta jihozlandi, infratuzilma jadal rivojlantirilmoqda, zamonaviy bozor mexanizmlari keng joriy etilmoqda. Mazkur ishlar bugungi kunda ham davom ettirilmoqda. Bularning barchasi paxta tolasi sifatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda paxtani ishlash va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning turi hamda hajmini ko'paytirish uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Milliy iqtisodiyotining muhim sohasi – paxta tolasi ishlab chiqarishda zamon talablariga mos keladigan texnologiyalarni qo'llashni talab qiladi. Hozirgi kunda bu sohaning oldida turgan asosiy vazifa tola va chigitning tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda sifatli tolali xom ashyo ishlab chiqarishdan iborat.

Paxtani dastlabki ishlash bir qator texnologik jarayonlardan iborat bo'lib (joylashtirish, saqlash, tashish, quritish, tozalash, tola ajratish va boshqalar), o'ziga xos texnologik zanjirni tashkil etadi. Bu texnologik zanjir har bir jihozning ish unumi va undan oldingi mashinalarning ish sifatiga chambarchas bog'liqdir. Mana shu masalani inobatga olgan holda paxtaning sifat ko'rsatkichlariga texnologik zanjir jihozlari ta'siri katta degan xulosaga kelish mumkin. Paxta tolasining jahon bozoridagi raqobatdoshligi asosan tashqi ko'rinishi tola uzunligi, hamda tarkibidagi ifloslik va nuqsonlar miqdoriga qarab belgilanadi. Paxta xom-ashyosini mayda iflos aralashmalardan, o'lukdan tozalash uchun tarkibida qoziqchali barabanlar, to'rli yuzalar bolgan tozalash mashinalari, yirik iflosliklardan tozalash uchun arrali va cho'tkali ajratuvchi barabanlar, ildiruvchi cho'tka, koloznikli panjaralar bilan jihozlangan paxta tozalash mashinalari qo'llaniladi.

Men bitiruv malakaviy ishimda Quva PTKda yirik iflosliklardan tozalovchi tozalash mahinasini o'rgandim.

TEKNOLOGIK QISM

Quva paxta tozalash zavodi 1909 yilda qurilgan bo'lib, uning mahkamasi Qo'qonda joylashgan aka-uka S. X. va A. X. Keverkovlarga qarashli bo'lgan Savdo saroyida boshqarib turgan.

Zavod mahkamasi Qo'qonda joylashgan og'a-ini Keverkovlarniki bo'lganligini arxiv xujjatlari tamomila tasdiqlaydi.

1938-1941 yillarda Gruzdeva, 1941-1943 yillarda Normuxamedov, 1943-1962 yillarda S.Karimov, 1962-1966 yillarda Tojimirzaev, 1966-1968 yillarda Sobirov rahbarlik qilganliklari ma'lum bo'ldi. 1968 yildan 1977 yillarda Karimov Odiljon rahbarlik qilganlar.


1964 yilda korxona uchinchi marta rekonstruktsiya qilindi. Eski jinlar yangilari bilan almashtirildi, 80 ta arrali XDD markali jinlar o'rnatildi.

Respublikamiz mustaqillik e'lon qilingandan so'ng zavod "Quva paxtani qayta ishlash" hissadorlik jamiyatiga aylantirildi.

Yangi 5ДП-130 markali jin mashinasidan 3 dona o'rnatildi, qisqa texnologiyaga o'tkazildi. Kelgusida jamiyatning ishlab chiqarish binolarini hozirgi zamon talablari asosida qayta ta'mirlash rejalashtirilgan.

Zavod bosh binosida joylashgan tola va momiq ajratish sexlarini, tozalash sexi binosiga ko'chirib olib o'tish (2-rasm). Buning uchun 2005 yil paxta hosilini 2006 yil iyun-iyul oylarida qayta ishlab tugatish zarur. Chunki press sexi xozirgi kunda tozalash sexi binosi bilan tutashib ketgan podstantsiya binosini o'miga qurilishi kerak. Podstantsiyani shu kunlarda buzib bo'lmaydi, sabab tozalash sexi podsushka xozirgi kunda shu podstantsiya orqali elektr-energiya bilan ta'minlanmoqda.

Tola va momiq ajratish sexlarini tozalash sexiga olib o'tilsa, zavodning barcha sexlari bitta binoga mujassamlanadi.



1-rasm. “Quva paxta tozalash” A/J bosh rejasi



Quritish-tozalash sexi.

Zavodning quritish-tozalash hamda bosh binosida hozirgi kunda ishlab turgan dastgohlar:

1. O'txona ИИЧ-1,5	2 dona
2. Issiq havo haydovchi ventilyator D-11,2	2 dona
3. Separator CC-15A	2 dona
4. Quritish barabani 2СБС	2 dona
5. Paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalovchi YXK liniyasi	2 dona

Zavodning bosh binosida xozirgi kunda quyidagi ishlab chiqarish dastgohlari ishlab turibdi:

1. Separator CC-15A	1 dona
2. Tola ajratish dastgohi 5ДП-130	3 dona
3. Tola tozalash dastgohi 1БПУ	3 dona
4. Paxta bo'luvchi shnek ИПХ	1 dona
5. Momiq ajratish dastgohi	10 dona
6. Chigit shnegi ИИС	10 dona
7. Chigit elevatori ЭС-14	2 dona
8. Tola presslash dastgohi ДБ-8237	1 dona
9. Momiq va qo'shimcha mahsulot:	
Presslash dastgohi ДБ-8237	1 dona
Presslash dastgohi Д-8237	1 dona
10. Tola kondensori 5KB	1 dona
11. Momiq kondensori КПБ-8	2 dona
12. O'lyuk kondensori КПБ-0,8	1 dona
13. Pux kondensori КПБ-0,8	1 dona
14. Momiq tozalash dastgohi (zavodda tayyorlangan)	1 dona



2-rasm. Quva paxta tozalash korxonasining bosh binoning ko'rinishi

Jumladan tozalash sexi. Tola ajratish sexi, momiq ajratish sexi, presslash.

Korxonalar tuzilishi va uni boshqaruvi ishlab chiqarishni tashkil qilish va xisob texnologiyasi buxgalteriyaning tashkiliy tuzilishi bilan tanishish.

Korxonalar – jamiyat ehtiyojini qondirish va daromad olish maqsadida mahsulot ishlab chiqarish, ishlar va xizmatlar bajarish uchun belgilangan qonun asosida tashkil qilingan mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ekt bo'lib hisoblanadi. «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi Qonunda korxonalarning tashkiliy huquqiy shakllari belgilab berilgan. Ularning asosiylaridan biri bu ochiq tipdagi aksionerlik jamiyatidir.

Korxonadagi ishchilar g'aram maydonlaridagi paxta g'aramlarini qo'l bilan buzib, quvurga uzatishadi va quvur orqali o'tib 2ЧТЛ rusumli toshtutkichka kelib, chigitli paxta tarkibidagi og'ir aralashmalar ajratiladi. Undan so'ng chigitli paxta CC-15A rusumli separatorga kelib chigitli paxta havodan ajratiladi. Havodan ajratilgan chigitli paxta taqsimlovchi shnek orqali 2СБС rusumli qurutish barabaniga tushadi, u yerda chigitli paxta kerakli namlikkacha qurtuladi. Agar namlik 19% dan yuqori bo'lsa, ikkinchi quritish barabaniga ТЛН rusumli qiya lenta yordamida uzatiladi. Quritilgan paxta yana CC-15A rusumli separatorga kelib, havodan ajratiladi. So'ngra taqsimlovchi shnek ПТН yordamida 2 ta oqim liniyasiga taqsimlanadi. Taqsimlangan paxta mayda iflosliklardan ajratish uchun YXK rusumli mayda va yirik iflosliklardan ajratuvchi mashinada iflosliklardan tozalanadi. Iflosliklarga aralashib qolgan chigitli paxta PX rusumli regeneratorda ajratib olinib, separatorga boradi. Tozalangan chigitli paxta bosh binoga quvur orqali o'tadi.

Bosh binoga quvur orqali kelayotgan chigitli paxta separatoridan o'tib taqsimlovchi shnekka tushib, u orqali 3 ta 5ДН-130 rusumli jinlarga taqsimlanadi. Ortib qolgan paxta BIM bunkeriga yig'iladi. Jinlarda chigitdan tolasi ajratib olinadi. Ajartib olinga tola 1БНУ tola tozalagichda tozalanadi va tola uzatish quvurida tola presslash sexiga boradi. Chigit esa ИИРС yig'uvchi

shnek orqali linterlash sexiga boradi. Jin va tola tozalagich mashinalaridan chiqqan tolali chiqindilar presslash sexiga boradi.

Jinlangan chigit IIIPC yig'uvchi shnek yordamida yig'ilib, ЭC-14 elevator yordamida IIIC taqsimlovchi shnekka uzatib beriladi. Taqsimlangan chigitlar 10 ta 5JII rusumli linter mashinalarida kalta tolalar chigitdan qirib olinadi. Qirib olingan momiqlar presslash sexiga quvur orqali uzatiladi.

Linterdan momiqi ajratib olingan chigit yig'uvchi shnek orqali yig'ilib, elevatorga keladi va elevator orqali chigit omboriga boradigan shnekka chigitlarni uzatib beradi. Chigitlar esa shnek orqali chigit omboriga boradi.

Linterlardan ajralib chiqqan tolali chiqindilardan tolasi ajratib olinib presslash sexiga quvur orqali boradi.

Tola quvur orqali o'tib 5KB kondensoriga boradi. Kondensorda tola havodan ajratib olinadi, shu bilan birga mayda iflosliklardan tozalanadi va tola $10-12 \text{ kg/m}^3$ zichlikda zichlab beriladi. Tola kerakli foizda namlanib, K20.801 shibbalagichda $550-600 \text{ kg/m}^3$ zichlanib ДБ-8237 rusumli toylash mashinasida toylanadi. Toylangan tola tarozida tortilib, tayyor mahsulot omboriga olib boriladi.

Qirib olingan momiq quvur orqali KJI rusumli momiq kondensoriga boradi. Kondensorda momiq havodan ajratib olinadi va OBM-A rusumli momiq tozalagichda tozalanib, YTB momiq shibbalagichda shibbalanib, ДА-8237 rusumli presslash mashinasida toylanadi. Toylangan momiq toylari tarozida tortilib, tayyor mahsulot omboriga olib boriladi.

Tozalangan tolali chiqindilar esa КПБ kondensorida havodan ajratib olinib, ДА-8237 rusumli presslash mashinasida toylanadi. Toylangan uluk tarozida tortilib tayyor mahsulot omboriga olib boriladi.

Quva paxta tozalash zavodi ishlab chiqarish dasturini hisoblash tartibi

1-jadval

Hisoblash uchun dastlabki quyidagi ma'lumotlardan foydalanish

Xom ashyo bazasining hajmi, Q_{paxta}	31622
Zavodda ishlaydigan jinlar soni, K_m	3
Jin silindridagi arralr soni, K_{ar}	130
Tola chiqishi, V_t	32,7
Korxonaning ishlash tartibi, n_c	3
Korxonaning ishlash vaqti, soat	8
Uskunalarining FIK	0,9
Lint olish darajasi B tip	2,8
Linterlar soni	10
Linter ish unumdorligi, P_r	1000
PTPdagi paxta miqdori, Q_{ptp}	15527
Bir yildagi kunlar soni, N	243
Yil davomidagi dam olish kunlari, N_d	35
Qonuniy bayram kunlari, N_b	4
Kapital ta'mirlash kunlari, N_{kp}	30
Tola toyining og'irligi	220
Lint va tolali chiqindi toyining og'irligi	225

Hisoblash

1. PTZning yil davomida ishlash vaqtini hisoblaymiz:

$$T = [N - (N_d + N_b + N_{kp})] = [243 - (35 + 4 + 30)] \cdot 3 \cdot 8 \cdot 0,9 = 3758,4 \text{ soat} \quad (1)$$

2. Arrali jinda ishlab chiqariladigan umumiy tola hajmini aniqlaymiz:

$$Q_T = \frac{Q_p V_t}{100} = \frac{31622 \cdot 32,7}{100} = 10340 \text{ tonna} \quad (2)$$

Jinlarning o'rtacha ish unumdorligini aniqlaymiz:

$$P_{o'rt} = \frac{Q_m \cdot 1000}{K_m \cdot K_{ar} \cdot T} = \frac{10340 \cdot 1000}{2 \cdot 130 \cdot 3758,4} = 7,1 \text{ kg} \cdot \text{arra} / \text{soat} \quad (3)$$

4. Tola navlari bo'yicha paxtaning assortimenti.

Paxta navi	Paxta hajmi		Tola navlari bo'yicha hajmi										Tola hajmi	
			1		2		3		4		5			
	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T
I	66,5	21022	71,0	14919,6	29,0	6101,9	0,0		0,0		0,0		33,8	7111,1
II	12,4	3906	100,0	3906,4	0,0		0,0		0,0		0,0		32,0	1250,9
III	10,7	3371	100,0	3371,4	0,0		0,0		0,0		0,0		30,8	1037,5
IV	6,8	2136	100,0	2135,7	0,0		0,0		0,0		0,0		28,4	607,2
V	3,8	1187	0,0		0,0		100,0	1187	0,0		0,0		28,2	335,3
Jami	100,0	31622		24333,1		6101,9		1187		0,0		0,0	32,7	10342,0

5. Paxta tolasining sinflari bo'yicha assortimenti.

Paxta navi	Paxta hajmi	Tola hajmi		Tola navlari bo'yicha paxta hajmi									
				Oliy		Yaxshi		O'rta		Oddiy		Iflos	
	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T
I	21021,5	68,8	7111,1	11,1	790,0	70,9	5043,2	15,1	1072,7	2,9	205,2	0,0	
II	3906,4	12,1	1250,9	56,2	702,4	33,0	412,3	7,7	96,5	3,2	39,7	0,0	
III	3371,4	10,0	1037,5	47,1	488,8	28,8	298,9	14,9	154,2	9,2	95,6	0,0	
IV	2135,7	5,9	607,2	49,4	300,0	25,6	155,7	17,4	105,4	7,6	46,1	0,0	
V	1187,0	3,2	335,3	0,0		0,0		100,0	335,3	0,0		0,0	
Jami	31622,0	100,0	10342,0		2281,2		5910,1		1764,1		386,6		0,0

6. Ishlab chiqarishda paxtadan olinadigan mahsulotlar balansi.

Paxta navi	Paxta hajmi		Tola hajmi		Chigit chiqishi va hajmi		Momiq chiqishi va hajmi		Tolali chiqindi chiqishi va hajmi		Iflos chiqindi chiqishi va hajmi	
	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T	%	T
I	66,5	21021,5	33,8	7111,1	59,9	12594,3	3,0	627,2	1,5	312,8	1,8	376,1
II	12,4	3906,4	32,0	1250,9	57,8	2259,7	2,9	112,4	4,3	169,6	2,9	113,8
III	10,7	3371,4	30,8	1037,5	57,7	1946,5	2,7	91,4	4,9	165,6	3,9	130,4
IV	6,8	2135,7	28,4	607,2	56,6	1208,1	2,4	51,7	5,8	124,6	6,7	144,1
V	3,8	1187,0	28,2	335,3	50,6	601,1	0,0		11,7	138,3	9,5	112,3
Jami	100,0	31622,0	32,7	10342,0	58,9	18609,7	2,8	882,7	2,9	910,9	2,8	876,7

7. Arrali jinli sexning ishlab chiqarish dasturi

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	Paxta navlari					Jami
			I	II	III	IV	V	
1	Paxta hajmi	T	21021,5	3906,4	3371,4	2135,7	1187,0	31622,0
2	Jinlar soni	Dona	3	3	3	3	3	3
3	Arralar soni	Dona	130	130	130	130	130	130
4	Jinlar ish unumdorligi	Kg/arra	8,4	7,1	6,1	5,3	5,0	7,1
5	Ishlab chiqarilgan tola miqdori	T	7111,1	1250,9	1037,5	607,2	335,3	10342,0
6	Ishlab chiqarilgan chigit miqdori	T	12594,3	2259,7	1946,5	1208,1	601,1	18609,7
7	Navlar bo'yicha jinlarning ishlash vaqti	Soat	2584,3	454,6	377,0	220,7	121,9	3758,4

8. Chigitni linterlash bo'limining ishlash rejasi.

Lint tipi	Ish unumdorligi	Linterlar soni	Lint olish darajasi	Ajratilgan lint miqdori	Linterlashdan oldin chigit miqdori	Linterlashdan keyingi chigit miqdori	Urug'lik chigit uchun ajratilgan chigit miqdori
A	1000	10	2,8	882,7	18609,7	17727,0	558,3
Jami	1000	10	2,8	882,7	18609,7	17727,0	558,3

9. Tolali mahsulotlarni toylash bo'limining ishlash rejasi

№	Ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	Toylanadigan mahsulotlar			
			Tola	Lint-A	Lint-B	tolali chiqindi
1	Preslar soni	dona	1		1	
2	Yil davomida ishlash vaqti	soat	3758,4		3758,4	3758,4
3	Toyning o'rtacha og'irligi	kg	220		225	225
4	Mahsulotlarning umumiy massasi	T	10342		882,7	910,9
5	Pressning ish unumdorligi					
	A) massasi bo'yicha	T/soat	2,8		0,2	0,2
	B) toy hisobida	toy/soat	12,5		1,0	1,1
6	Tayyor mahsulotlar toy hisobida	dona	47009		3923	4048

10. PTZning tayyor mahsulot chiqarish ko'rsatkichlari

№	Tayyor mahsulotlar	O'lchov birligi	Vaqt ko'rsatkichlari			
			soat	smena	sutka	yil
1	Tola	Tonna	2,8	22,0	66,0	10342,0
2	Lint:					
	A) A-tipli	Tonna	0,23	1,9	5,6	882,7
	B) B-tipli	Tonna				
3	Chigit:					
	A) urug'lik	Tonna	0,15	1,2	3,6	558,291
	B) texnik	Tonna	4,6	36,5	109,6	17168,7
4	Tolali chiqindilar	Tonna	0,24	1,94	5,82	910,9

11. PTZ qoshidagi PTP dagi omborlarda va bunt maydonlarida saqlanadigan paxtaning umumiy hajmi

№	Tayyorlash muddati	Tayyor mahsulot hajmi		Muddatdagi ish kuni	Ishlab chiqarishga berilgan paxta (sutkada)	Muddat vaqtida ishlab chiqarilgan paxta hajmi	PTPda terim davri oxirida tayyorlangan paxta
1	15.09-30.09.	20	6324	11	190,7	2097,6	4226,8
2	1.10-15.10.	35	11068	11		2097,6	8970,1
3	16.10-31.10.	30	9487	12		2288,3	7198,3
4	1.11-15.11.	15	4743	11		2097,6	2645,7
		100	31622	45		8581,2	23040,8

Ombor va paxta saqlash maydonlari hisobi

1. Usti berk paxta saqlanadigan ombor va bunt maydonlaridagi paxtani umumiy miqdori aniqlanadi.

$$Q_o = \frac{Q_{\max} \cdot 25}{100} = \frac{23040,8 \cdot 25}{100} = 5760,2 \quad (4)$$

$$Q_b = \frac{Q_{\max} \cdot 75}{100} = \frac{23040,8 \cdot 75}{100} = 17280,6 \quad (5)$$

2. Omborlar va bunt maydonlarining soni topiladi.

$$n_o = \frac{Q_o}{V_o} = \frac{5760,2}{750} = 8 \quad n_b = \frac{Q_b}{V_b} = \frac{17280,6}{350} = 49$$

Bu erda: V_o - standart omborlar hajmi, 750-800 tonna;

V_b - standart bunt paxta saqlash hajmi, 350-400 tonna.

$$f = \frac{Q_{urug'} \cdot 1000}{H \cdot \gamma \cdot \rho_{ch}} = \frac{558,3 \cdot 1000}{2,5 \cdot 0,82 \cdot 350} = 778,1$$

Bu erda: Qurug-urug'lik chigit miqdori, tonna; H -chigit to'kilish balandligi, 2,5 metr.

Texnik chigit uchun maydonlar hisobi

$$f = \frac{k \cdot Q_{tex} \cdot 1000}{H \cdot Y \cdot \rho_{ch}} = \frac{3 \cdot 109,6 \cdot 1000}{2,5 \cdot 350 \cdot 0,83} = 453$$

Bu erda: Q_{tex} -PTZ da 1 sutkada ishlab chiqarilgan texnik chigit miqdori, tonna;

N -texnik chigitni to'kish balandligi, 2-3 metr;

k - zapas kunlar (belgilangan norma bo'yicha), 2-5;

Y -omborni to'latilish koefitsenti ($Y = 0,8-0,85$)

P_{ch} - chigitning solishtirma og'irligi ($P_{ch}=350 \text{ kg/m}^2$)

Paxta tolasi va momiq toylari uchun maydon hisobi

$$f = K \frac{k(N_T + N_n) \cdot a \cdot b}{H \cdot \varphi} = 1,5 \cdot \frac{4(151,9 + 13,4) \cdot 0,97 \cdot 0,6}{3 \cdot 0,7 \cdot 0,9} = 600,9$$

Bu erda: h -toy balandligi, $h=0,7\text{m}$;

H-taxlangan toylar balandligi, $N=h*j$

N_T - 1 sutkada ishlab chiqarilgan tola toylari soni;

N_n - 1 sutkada ishlab chiqarilgan momiq toylari soni;

b- toylar eni, $b=0,6$ m;

k-zavoddagi saqlanish kunlar soni, $k=3-5$ sutka;

j-qatorlar soni, $j=3-4$;

ϕ -maydonni to'ldirish koeffitsienti, $\phi =0,9$;

K-tolani partiyaga ajratib joylashtirishni xisobga olish koeffitsienti $K=1,5$.

Quva PTK ning tozalash rejasini hisoblash

Quva paxta tozalash korxonasining umumiy tozalash samaradorligini bilish uchun avvalo shu zavod qanday texnologik ketma-ketlik asosida ishlashi, korxona qanday zamonaviy texnologiya bilan ta'minlanganligini hamda mashinalarning ma'nau eskirganlarini aniqlab olishimiz kerak. Oldin mavjud texnologik jarayon bo'yicha zavodning umumiy tozalash samaradorligi hisoblab chiqiladi. Keyin esa taklif etilgan texnologik jarayon bo'yicha umumiy tozalash samaradorligi hisoblanib kerakli mashinalar tavsiya etiladi.

Paxta tozalash korxonasi umumiy tozalash samaradorligini va tolaning ifloslik bo'yicha sifatini hisoblash.

Hisoblash uchun dastlabki ma'lumotlar:

I. Chigitli paxtalarning sifat ko'rsatkichlari:

A) paxta turi - o'rta tolali

B) terim turi - qo'lda terilgan

Qurilgandan keyingi namligi, W, %	9,2
Dastlabki iflosligi S_1 , %	10,2
Paxtadagi uluk darajasi, U_1 , %	2,9
Tola chiqishi	32,7

II. Quritish va tozalash sexida o`rnatilgan texnologik uskunalarning o`rtacha tozalash samaradorligi

Uskunalarining markasi	Tozalash samaradorligi, % hisobida		
	Mayda iflosliklar	Yirik iflosliklar	Uluk bo'yicha
Separator CC-15A	3÷7	-	-
Quritish barabani 2CB-10	-	-	-
YXK sektsiyasi	-	40÷45	20÷25
Tozalagich 1XK	40÷45	-	-

III. Jinlash sexida o`rnatilgan uskunalarning o`rtacha tozalash samaradorligi:

Uskunalarining markasi	Tozalash samaradorligi, % hisobida		
	Mayda iflosliklar	Yirik iflosliklar	Uluk bo'yicha
Jin ta'minlagich ПД	5÷10	-	-
Arrali jinlar 5/П-130	20÷25	-	5÷10
Tola tozalagich 1БП	25÷30	-	-

Agar bir tipdagi tozalagichlar ketma-ket ulangan bo'lsa, unda keyingi tozalagichning tozalash samaradorligining kamayish koeffitsienti $k=26$.

“Quva paxta tolasi” A/Jni umumiy tozalash samaradorligini va tolaning ifloslik bo'yicha sifatini amaldagi texnologik jarayon asosida hisoblash

1. Quritish va tozalash tsexlarining tozalash samaradorligini hisoblash:

CC-15A → 2(CBC) → TJH → 2:(YXK)

a) iflosliklar bo'yicha

$$\begin{aligned} K_{km} &= \left[1 - \left(1 - \frac{K_{CC-15}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{VXK}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{VXK}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\ &= \left[1 - \left(1 - \frac{7}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{45}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{45}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\ &= [1 - (0,93 \cdot 0,55 \cdot 0,55)] \cdot 100 = 89,1 \% \end{aligned}$$

b) Uluklar bo'yicha

$$\begin{aligned} K_{km} &= \left[1 - \left(1 - \frac{K_{VXK}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{VXK}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{VXK}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\ &= \left[1 - \left(1 - \frac{25}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{18}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{13}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\ &= [1 - (0,75 \cdot 0,82 \cdot 0,87)] \cdot 100 = 46,5 \% \end{aligned}$$

2. Arrali jinli sexning tozalash samaradorligini xuddi shu formula asosida hisoblanadi.

a) iflosliklar bo'yicha

$$\begin{aligned} K_{AP} &= \left[1 - \left(1 - \frac{K_{CC-15}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{IIJ}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{5,III}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \left[1 - \left(1 - \frac{5}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{7}{100} \right) \cdot \right. \\ &\cdot \left. \left(1 - \frac{15}{100} \right) \right] \cdot 100 = [1 - (0,95 \cdot 0,93 \cdot 0,85)] \cdot 100 = 24,9 \% \end{aligned}$$

b) Uluklar bo'yicha

$$K_{ar} = K_{IIJ} = 8 \%$$

3. Zavodning chigitli paxtani tozalashda umumiy tozalash samaradorligi hisoblanadi:

a) iflosliklar bo'yicha

$$\begin{aligned} &= \left[1 - \left(1 - \frac{K_{KT}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{AP}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \left[1 - \left(1 - \frac{89,1}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{24,9}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\ &= (0,109 \cdot 0,751) \cdot 100 = 91,8 \% \end{aligned}$$

b) Uluklar bo'yicha

$$\begin{aligned} K_{YM} &= \left[1 - \left(1 - \frac{K_{KT}}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{K_{AP}}{100} \right) \right] \cdot 100 = \left[1 - \left(1 - \frac{46,5}{100} \right) \cdot \left(1 - \frac{8}{100} \right) \right] \cdot 100 = \\ &= [1 - (0,487 \cdot 0,92)] \cdot 100 = 50,8 \% \end{aligned}$$

4. Paxtaning dastlabki iflosligi (C_1) belgisi bo'lsa, unda jinlash jarayonidan keyin toladagi ifloslik darajasi aniqlanadi:

$$C_2 = \frac{100 \cdot C_1 \cdot (100 - K_{um})}{10000 - C_1 \cdot K_{um}} = \frac{100 \cdot 10,2 \cdot (100 - 91,8)}{10000 - 10,2 \cdot 91,8} = 0,92 \%$$

5. Dastlabki paxtadagi uluk darajasi (U_1) aniqlangan bo'lsa, unda jinlashdan keyin toladagi uluk miqdorini hisoblash mumkin:

$$U_2 = \frac{100 \cdot U_1 \cdot (100 - K_{um})}{10000 - U_1 \cdot K_{um}} = \frac{100 \cdot 1,4 \cdot (100 - 50,8)}{10000 - 1,4 \cdot 50,8} = 0,69 \%$$

6. Jinlashda ajratiladigan toladagi nuqsonlar va iflosliklar darajasi aniqlanadi:

$$\Pi_0 = \alpha \cdot \left(\frac{C_2 + Y_2}{B_r} \cdot 100 \right) = 1,2 \cdot \left(\frac{0,92 + 0,69}{33,4} \cdot 100 \right) = 5,8 \%$$

7. Jinlarda ajratilgan tolalarni tozalash mashinasida tozalagandan keyingi iflosliklar bo'yicha tola sifati aniqlanadi:

$$\Pi_T = \frac{100 \cdot \Pi_0 \cdot (100 - K_{TMM})}{10000 - \Pi_0 \cdot K_{TMM}} = \frac{100 \cdot 5,8 \cdot (100 - 30)}{10000 - 5,8 \cdot 30} = 4,13 \%$$

Chigitli paxtadagi iflos aralashmalarning turlari va ularning tarkibi.

Chigitli paxta tolasini chigitidan ajratish jarayonida uning iflos aralashmalarni tola sifatiga zarar qilmasligi uchun, ular quritish-tozalash va tozalash sexlari ichiga o'rnatilgan tozalash uskunalarida iflos avralashmalardan tozalanadi.

G'o'za ko'saklarining yetilish davrida barg va shoxchalar quriy boshlaydi, mo'rt bo'lib, oson sinib maydalanadi va ochilgan paxtaga qo'shilib, uni ifloslantiradi.

Chigitli paxtani qo'l bilan terganda uning ifloslanish darajasi asosan terimchining diqqatiga bog'liq bo'lsa, mashina bilan terishda esa g'o'za barglarini to'ktirish (defolyasiya) ishlarining o'z vaqtida va sifatli o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi.

Chigitli paxtada uchraydigan aralashmalar kelib chiqishi jihatidan organik va mineral jismlarga bo'linadi.

Organik jismlarga g'o'za tupining qismlari-barg, shoxchalar, chanoq pallalari, gul barglari va boshqa o'simlik qismlari (g'umay va boshqa begona o'tlar) kiradi.

Mineral qo'shilmalarga tosh, qum, tuproq, kesak va hakovolar kiradi.

Chigitli paxtada bo'ladigan iflos aralashmalar o'lchami jihatidan shartli ravishda ikki guruxga bo'linadi.

Mayda aralashmalar guruhiga teshiklari 10 mm li to'rdan o'tadigan va yirik aralashmalar guruhiga (10 mm) to'rdan o'tmaydiganlari kiradi.

Iflos aralashmalar chigitli paxtaga ilashishi jihatidan passiv yoki inertli va aktiv xillarga bo'linadi. Passiv yoki inertli aralashmalar chigitli paxta pallalarining sirtida bo'lib, yengil silkitganda chigitli paxtadan oson ajraladi. Aktiv aralashmalarni chigitli paxtadan ajralishi qiyin bo'ladi. Aktiv aralashmalarni chigitli paxtadan ajratish uchun ularni avval passiv holatga keltirish kerak bo'ladi. Shuning uchun paxta tozalash uskunalarini tanlashda aralashmalarining xarakteriga va ularning chigitli paxtaga qanday yopishganligiga ahamiyat berish kerak.

Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash texnologiyasi.

Chigitli paxtadan har xil iflosliklarni ajratish uchun kerakli uskunalar turlarini tanlashda ularning fizika-mexanikaviy xususiyatlarini (o'lchamlari, kelib-chiqishi, paxtaga ilashish darajasi) nazarga olish katta ahamiyatga ega.

Chigitli paxtani xas-cho'plardan tozalash mashinalari qoziqchali barabanlar seksiyasi va arrachali barabanli seksiyalaridan iborat bo'ladi. Mayda xas-cho'plar qoziqchali barabanlar seksiyasida, yirik aralashmalar esa arrachali barabanli seksiyalarda yaxshi tozalanadi.

Chigitli paxtani tozalash uskunolari ish unumdorligi va tozalash samaradorligi (chigitli paxtadan xas-cho'p, ulyuk va puch chigitlarni ajratish qobiliyati) bilan baholanadi (xarakterlanadi). Uskunaning tozalash samaradorligi uskunaga tushgan paxtadan ajratilgan aralashma massasining chigitli paxta massasiga nisbati bilan foiz hisobida aniqlanadi:

$$K_M = \frac{C_1 - C_2}{C_1} * 100 \quad \%$$

bunda: C_1 , C_2 - chigitli paxtaning tozalashdan oldin va tozalashdan keyingi ifloslik darajasi.

Uskunalarining tozalash samaradorligiga ularning ish unumdorligi, chigitli paxtaning namligi va iflosligi katta ta'sir qiladi. Uskunalarining ish unumdorligi ularning eng yuqori tozalash samaradorligiga moslab oshiriladi. Chigitli paxtaning namligi normal darajagacha kamaytirilganda tozalash samaradorligi ko'payib, iflos aralashmalarni chigitli paxtadan ajralishi osonlashadi. Namligi


normal darajadan yuqori bo'lgan chigitli paxtani tozalaganda uskunalarning tozalash samaradorligi kamayishidan tashqari shu chigitli paxtanining tolasida qo'shimcha nuqsonlar ham ko'payadi. Buni ilmiy tekshirish instituti ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

3-jadval

Chigitli paxtaning ishlanish shartlari	Namligi,	Iflosligi	Toladagi nuqsonlar,%	
	%	%	ifloslik,%	nuqsonlar,%
Quritishdan o'tkazilmagan	14,2	13,6	12,4	18,5
Quritishdan o'tkazilgan	10,1	13,3	6,3	12,5

Mayda iflosliklar chigitli paxtadan barabanli va shnekli tozalagichlarda yaxshi ajraladi, ularni ajratish uchun tozalash jarayonida chigitli paxtani elash yetarli deb hisoblanadi. Shu sababli chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun qoziqli-titkilash uskunalari ishlatiladi.

To'rli sirtlar (rasm 3) po'lat simlardan to'qilgan, har xil shakldagi ko'zli yaxlit tunuka yoki turli shakldagi qobirg'alardan yasalgan bo'lishi mumkin.



3-rasm. To'rli sirtlar turlari sxemasi.

a). po'lat simdan to'qilgan

b),v). har xil teshikli tunukadan yasalgan.

Uskunaning tozalash samaradorligi qoziqli-titkilash barabani bilan to'rli sirtning bir-biriga nisbatan joylashishiga ham bog'liq bo'ladi. 15-rasmda qoziqchali barabanli tozalagichlarda chigitli paxtaga ta'sir qiladigan kuchlar sxemasi berilgan.

Yirik iflosliklar va ularning turlari.

Oldingi ma'ruzada aytib o'tilganidek chigitli paxtada bo'ladigan iflos qo'shimchalar o'lchami jihatidan shartli ravishda ikki guruxga bo'linadi. Mayda aralashmalar guruxiga teshiklari 10 mm li to'rdan o'tadigan va yirik aralashmalar guruxiga bunday (10 mm) to'rdan o'tmaydiganlar kiradi. Yirik aralashmalar organik va mineral bo'lishi mumkin. Yirik aralashmalar chigitli paxtaga ilashishi jixatidan passiv holatda bo'ladi. Ularning o'lchamlariga bog'liq holda asosan iflosliklar chigitli paxtaning ustki qatlamida joylashadi. Shu sababli ularni silkitish hisobiga ajratish oson. Lekin tozalash davrida uskunalarning ishchi organlariga urilish kuchi ta'siri hisobiga parchalanib mayda iflosliklar guruxiga aylanishi ham mumkin.


Texnologik uskunalarning to'xtovsiz va samarali ishlashi uchun chigitli paxtadagi tasodifiy ravishda qo'shilgan og'ir jismlarni oldindan ajratib olish lozim. Bu og'ir jismlar (tosh, kesak, temir parchalari va h.k.) texnologik uskunalarning ishchi organlariga zarar yetkazib, mahsulot sifatini va uskunalarning ish unumdorligini pasaytiradi. Chet (og'ir) jismlar texnologik uskunalariga zarar etkazish bilan birga, ish vaqtida yong'in chiqarish xavfini olib keladi.

Chigitli paxtadan yirik iflosliklarni ajratish texnologiyasi.

Chigitli paxtani har xil aralashmalardan tozalash uchun, ularning (aralashmalarining) fizik-mexanikaviy xususiyatlarini hisobga olib, texnologik uskunalar turi tanlab olinadi. Masalan: yirik iflosliklarni chigitli paxtadan ajratishda arrali barabanlar seksiyasidan foydalaniladi.

Chigitli paxtani yirik iflosliklardan tozalash samaradorligi uskuna ish organlarining chigitli paxtaga ta'sir etish usuliga: to'rli sirt yoki qobirg'a ustida chigitli paxtani silkitish, tozalash vaqtida havo oqimining aralashishi, arrali barabanlarning chigitli paxta bo'laklarining qanday titkilab tarashiga bog'liq. Tozalash uskunalarini ish organlarining chigitli paxtaga ta'siri o'z navbatida bir qator sabablarga: uskunaning ish unumdorligiga, ishchi qismlarining aylanish tezligiga, ishchi organlari orasidagi texnologik masofalarga (zazorlarga),

ularning konstruksiyasiga, chigitli paxtaning nechanchi marta tozalanishiga bog'liq.



**4-rasm. Yirik iflosliklar
dan tozalashda foydala
niladigan asosiy ishchi
organlar**

1. Arrali baraban.
- 2.. Kolosniklar.
3. Ilashtiruvchi cho'tka
4. Ajratib oluvchi
cho'tkali baraban

Arrachali barabanli tozalagich uskunalarning (*rasm 4*) asosiy ishchi organlari arrachali baraban (1) bilan uning tagiga ma'lum bir masofada (zazor) qatorlab qo'yilgan qobirg'alardan (3) iborat. Bu ishchi organlari chigitli paxta bo'lakchalarini arra tishlariga ilashtiruvchi cho'tkasi (2) va ajratib oluvchi cho'tkalari (4) birgalikda chigitli paxtadan yirik iflosliklarni ajratish texnologik jarayonini tashkil etadi.

Arrali barabanli tozalagichlarning tozalash samaradorligi uning ish unumdorligiga va chigitli paxtaning sanoat naviga bog'liq.

5-rasmda ЧХ-3М2 markali 2 ta (arrali barabanli) seksiyali chigitli paxtani tozalash uskunasi tozalash samaradorligining ish unumdorligiga bog'liq ekanligi grafiklarda keltirilgan.

Yirik iflosliklardan tozalash uskunalari konstruksiyasi va ishlash tartibi.

Paxta tozalash korxonalarida chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayoniga kiritilgan tozalash uskunalari shu zavodning tozalash sexlarida o'rnatilgan bo'lib, ularning joylashishi har xil variantlarda bo'lishi mumkin. Masalan: ЧХ-3М2 rusumli ikkita tozalash uskunalari qatorlab (batareya shaklida) joylashtiriladigan bo'lsa, (har qatorda 4-6 uskunadan), YXK

seksiyalari va 1XII rusumli uskunar ketma-ket bitta oqim liniyasida o'rnatiladi.

Yirik aralashmalarni chigitli paxtadan ajratish texnologiyasida asosan foydalaniladigan ishchi organlari bir xil bo'lgani bilan ularni (arrali baraban, qobirg'alar, cho'tkalar) uskuna ichida o'rnatish usullari har xil bo'lishi mumkin. Shu sababli yirik iflosliklardan tozalash mashinalarining konstruksiyalari ham bir-biridan farq qiladi.

5-rasmda 4X-3M2 qoziqchali-arrachali barabanli tozalagich uskunasi ko'ndalang qirgimi bo'yicha texnologik jarayon sxemasi ko'rsatilgan. Tozalagich chigitli paxtani yirik va mayda xas-cho'plardan tozalash uchun mo'ljallangan bo'lib, paxta tozalash korxonalarining asosan tozalash sexlarida o'rnatiladi. 4X-3M2 markali tozalagich ta'minlash valiklari 1, titkilagich-qoziqchali tozalash barabani 2, uning tagidagi to'rli sirt 3, ikkita asosiy arrali barabanlar 4, tozalangan chigitli paxtani arrachali baraban tishlaridan ajratib oluvchi cho'tkali barabanlar 5 va chigitli paxta bo'laklarini arra tishlariga ilashtiruvchi cho'tkalari 6 dan iborat. Arrachali barabanlar ostida qirgimi yumaloq shaklda bo'lgan qobirg'alar 7 o'rnatilgan. Iflos aralashmalarga qo'shib qolgan chigitli paxta bo'laklarini ajratib olish uchun konstruksiyasi jihatidan arrali barabanlarga 4 o'xshash regenerasion seksiyasi 8 o'rnatilgan, iflos aralashmalarni uskuna ichidan chiqarish uchun uzatuvchi shnek o'rnatilgan. Bu tozalagichda texnologik jarayon quyidagicha bajariladi:

-iflos aralashmalari bor chigitli paxta valikli ta'minlagichlar (1) yordamida bir tekisda qoziqchali titkilagich-tozalash barabaniga (2) uzatiladi, bu o'z navbatida chigitli paxtani mayda bo'laklarga titkilab va titilgan chigitli paxtani to'rli sirt (3) ustidan sudrab o'tkazish hisobiga mayda iflosliklardan tozalanadi. Keyin birinchi arrali baraban (4) ga beriladi. Arrali sirt ustida chigitli paxta ilashtiruvchi cho'tka (6) bilan tekislanadi va arralarning tishiga mahkamlanadi.

Arra tishlariga yopishtirilgan chigitli paxta bo'laklari harakat vaqtida qobirg'alarga (7) uriladi, shunda xas-cho'plar bilan chigitli paxta orasidagi

bog'lanish kamayadi. Aktiv xas-cho'plarining bir qismi passiv xas-cho'plarga aylanadi va markazdan qochirma kuch bilan havo ta'sirida qobirg'alar orasidan tushib ketadi. chigitli paxta arra tishlaridan cho'tkali baraban (8) yordamida ajratib olinadi va tuzilishi jihatidan shunga o'xshash ikkinchi arrali baraban seksiyasida tozalanish takrorlanadi, undan ajratilgan toza chigitli paxta cho'tkali baraban orqali paxtani yig'ish konveyeriga (shnegiga) uzatiladi.


Chigitli paxtani tozalash vaqtida ajratilgan iflos aralashmalar uskunalar tagida joylashtirilgan umumiy ifloslik shnegi bilan uskunalardan chiqarilib maxsus pnevmotransport sistemasiga beriladi.

Tozalangan chigitli paxta esa, keyingi texnologik jarayonga uzatiladi.

4X-3M2 rusumli tozalagichning texnologik ko'rsatkichi

6-jadval

<i>№</i>	<i>Ko'rsatkichlar nomi</i>	
1	Chigitli paxta bo'yicha ish unumdorligi, t/c	1-3,0
2	Tozalash samaradorligi, %	70-80
3	Ishchi organlarining aylanish tezligi: min ⁻¹ a) ta'minlash valiklari b) arrali barabanlar v) cho'tkali barabanlar	0-20 400 800
4	Ishchi organlarining texnologik zazorlari, mm a) qoziqchalar bilan to'r orasi b) arrali baraban qobirg'alar orasi v) arrali baraban bilan cho'tkalar orasi	14-16 10-12 1 gacha



5-rasm 4X-3M2 rusumli paxtani yirik iflosliklardan tozalagichning ko'ndalang qirqimi va umumiy ko'rinishi

1. Ta'minlovchi valiklar, 2. Titkilovchi-tozalagich baraban,
3. To'rli sirt (yuza),
4. Arrali baraban,
5. Cho'tkali baraban
6. Ilashtiruvchi cho'tka,
7. Qobirg'ali panjara,
8. Arrali regeneratsion seksiya,
9. Qiya tekis lyuk,

Texnologik bo'limdan xulosa.

1. Texnologik bo'limda Quva paxta tozalash korxonasi ishlab chiqarish dasturini hisoblash ishlarini olib borildi.
2. Korxonaning bosh rejasi chizildi.
3. Quritish-tozalash, jinlash, linterlash va presslash sexidagi uskunalar haqida ma'lumot berildi.
4. Tayyor mahsulotlar balansi kiritildi.

MEXANIKA

QISMI

Paxta tozalash mashinalari

CHX-3M2 "Mehmat" va CHX-5 arrachali paxta tozalash mashinalari - rasmlar) ta'milovchi valiklar, qoziqchali baraban, ikkita asosiy va bitta regeneratsion arrachali baraban, yopishtiruvchi cho'tka, ikkita cho'tkali ajratuvchi baraban va kolosnikli ianjaradan iborat.

Paxta xom-ashyosi ta'mshash valiklari yordamida qoziqchali barabanga bir tekisda uzatiladi. Qoziqchali baraban, o'z navbatida, paxtani titkilab, to'rtli sirt orkali o'tkazib, mayda iflosliklardan tozalab, birinchi arrachali barabanga uzatadi. Arrachali sirt ustida chigitli paxta ildiruvchi cho'tka bilan tekislanadi va arra-chaparning tishiga yopishtiriladi. Arrachalarga yopishgan xom-ashyo xarakat davrida kolospikparga uriladi va markazdan kochma kuch ta'sirida undai yirik iflosliklar ajralib kolosniklar orasidan tushadi. Keyingi boskichda arrachalarga yopishgan paxta xom-ashyosi birinchi cho'tkapi ajratuvchi baraban yordamida ikkinchi asosiy arrachali barabanga yunaltiriladi, bunda ham avvalgi boskichdagi jarayoi bajariladi va paxta arrachalardan cho'tkali ajratuvchi barabanlar yordamida ajraladi, keyin esa tozalash mashinasidan tashkariga chikariladi. Kolosnikli panjaralardan iflosliklar bilan birga o'tib ketgan paxtalar chikindilardan regeneratsion arrachali baraban yordamida ajratib olinadi va chutkali ajratuvchi baraban bilan ajratilib, paxta tozalash mashinasidan chikib ketayotgan paxtaga kushiladi.

Rekonstruktsiya qilipgan paxta tozalash korxonalarida takomillashtirilgan CHX-5M paxta tozalash mashinasi (5- rasmlar) qullaniladi.

1XP (RX-1) arrachali paxta tozalash mashinasi to'rtli oqimli pnevmota'minlagich, asosiy va regeneratsion arrachali barabanlar, kolosnikli pianjara, ildiruvchi cho'tkalar, cho'tkali ajratuvchi baraban va ifloslikni chikaruvchi shnekli o'z ichiga olgan bo'lib, normachlashtirilgan arrachali


YeN.177 bo'limlarga ega. Paxta asosiy arrachali barabanga havo oqimi bilan beriladi, tozalangandan keyin esa cho'tkali ajratish barabani bilan havo oqimiga qaytariladi. Pnevмота'minlagich aylaiib utuvchi kanalga ega va paxtani arrachali sektsiyaga bermay, tranzit yo'l bilan olib ketuvchi to'siklar bilan jixozlangan. 1XP paxta tozalash mashinasi PLPX texnologik oqimlarda qo'llaniladi.

1XK (SCH-02) qoziqchali paxta tozalash mashinalari (-rasmlar) har qaysisi qoziqchali baraban va to'rli yuzadan hamda to'rtta normallashtirilgan YeN.178 bo'limlardan iborat bo'lib, boshlanishdagi qoziqchali bo'lim YeN. 178.01 qo'shimcha ta'miilovchi valiklar bilan jihozlangan. Paxta qoziqchani barabanlar bilan to'rli yuzasidan o'tkaziladi, bunda iflos aralashmashr ajralash. Ikkita qoziqchali blok iflos aralashmalarnp chikaruvchi bunker bilan birgalikda tozalash sektsiyasini tashkil etadi va uni alohida qullash mumkin.

UXK paxta tozalash agregati to'rtta tozalash bo'limiga ega bo'lib, boshlanishida UXK.01, o'rtasida ikkita UXK.02, oxirida UXK.03 va ularning oraligiga tegishlicha birlashtirilgan to'rtta YeN. 178 bo'limlar o'rnatilgan.


Tozalash bo'limlari har biri qoziqchali blok YeN.178 (boshlangich sektsiya YeN.178.01)ga, ikkita cho'tkali ajratuvchi barabanga ega bo'lgan cho'tkapi bo'limga va arrachali sektsiya YeN.177 ga ega. UXK paxta tozalash agregatlari ko'p yoki o'z miqdordagi sektsiyalarga ega bo'lishlari mumkin. Qiyin tozalanuvi paxta selektsiyalarini tozalash uchun boshlangich va so'ngi sektsiyalariga bittadan 1XK paxta tozalash mashinalarini birlashtirish tavsiya etiladi.

Shuningdek, UXK paxta tozalash agregati qagorli yigilgan komplekslar yoki tozalash bo'limlarida PLPX texnologik oqim o'rniga hamda rekonstruktsiyalangan paxta tozshtsh korxonaparinpng bosh bo'limlarida qullaniladi.




6-rasm. CHX-3M2 “Mehnat” paxta tozalash mashinasi sxemasi

1-ta'minlovchi valiklar, 2- qoziqchali baraban, to'rtli yuza, 5- arrachali baraban,
6- kolosnikli panjara, 7- cho'tkali ajratuvchi baraban.




7-rasm CHX-3M2 “Mehnat” paxta tozalash mashinasining kinematik sxemasi



8-rasm CHX-5 paxta tozalash mashinasi sxemasi

1-ta'minlovchi valiklar, 2- qoziqchali baraban, 3- deka, 4- yipishtiruvchi cho'tka, 5- arrachali baraban, 6- kolosnikli panjara, 7- cho'tkali ajratuvchi baraban, 8- aspirasion tarnov, 9-to'sqich.




9-rasm 1XP markali paxta tozalash mashinasi

1- pnemotaminlagich, 2- arrachali baraban, 3- yopishtiruvchi cho'tka, 4- kolosnikli panjara, 5- chotkali ajratuvchi baraban, 6- vintli konveyer, 7- to'sqichlar.

Taklif etilayotgan variat.

Kolosniklarning aylanadigan varianti taklif etilayapti. Bu tozalash samaradorligi kolosniklarning aylanishi hisoviga yuqori bo'ladi. Taqlif etayotgan variantimiz 8-rasmdagi keltirilgan tozalash mashinaga o'rnatiladi. Kolosnik va o'rtasidagi texnologik zazorni chigitli paxtani sanoat naviga qarab o'zgartirish lozim.



10-rasm CHX-5 paxta tozalash mashinasiga taqlif etilayotgan varianti sxemasi

1- arrachali baraban, 2-qo'zgalmas cto'tka, 3-aylanuvchi kolosnik, 4-ko'zgalmas kolosnik, 5-ajratuvchi baraban

Mexanika bo'limidan xulosa

1. Quva paxta tozalash korxonasida chigitli paxtani iflosliklardan tozalash mashinalari o'rganildi.
 2. Yirik iflosliklardan tozalash tahlil qilindi.
 3. CHX-5 paxta tozalash mashinasiga aylanuvchi kolosnik qo'yishni taklif etdik.
 4. Yirik iflosliklardan tozalash mashinasi ishchi organlari arrali baraban, qo'zgalmas cho'tka, kolosnikli panjara, barcha yiril iflosliklardan tozalash mashinalarida bir xilligini o'rgandik.
 5. Chigitli paxtani naviga qarab yirik iflosliklar bilan ifloslanish darajasi turlicha bolishi paxta navi bilan uning miqdori ortishi o'rganildi.
 6. Kolosnik va arra o'rtasidagi texnologik zazorni chigitli paxtani sanoat naviga qarab o'zgartirish lozim.
- Taqlif etilayotgan variantlarda tolani tozalash samaradorligi kamida 85-90% ga oshiriladi.

MEHNAT MUHOFAZASI QISMI

Tozalash jarayonlaridagi elektr va texnika xavfsizligi.

Hozirgi zamon mashinasozlik sanoati korxonalari sexlarida turli-tuman mashina-mexanizmlar, stanoklar, ko'tarish kranlari, ish bajarish konveyerlari va boshqa qurilmalar mavjudki, ularning hammasi shu yerda ishlatilayotganlar uchun malum xavf tug'dirishi, agar extiyot chora-tadbirlari belgilab qo'yilmasa, baxtsiz hodisalar sodir bo'lishi hech gap emas.

Bu mexanizmlarning bazi birlari detallarni qirqish, ularga shakl berish ishlarini bajarsa, boshqalari ish sharoitini yaxshilash, o'gir ishlarni yengillashtirish vazifalarini bajaradi. Ish bajarish sharoitlari ham bir xil emas, masalan, metallarni qirqishda ishlatiladigan stanoklarni ishlatilganda sovutuvchi suyuqliklardan foydalaniladi, ularning kesish issiqligi tasirida bug'lanishi havo muhitining ifloslanishiga, shuningdek havo namligining oshib ketishiga olib keladi..

Bundan tashqari detallarga ishlov berilgandan keyin hosil bo'ladigan qirindilar va ularni yig'ib, chiqindisiz jarayonni tashkil qilish ishlari, ularning hammasi ish sharoitini yaxshilashning asosiy omillari hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, mashinasozlik sanoati korxonalari ishchilarni baxtsiz hodisalarga olib keladigan manbagina bo'lib qolmasdan, balki havo muhitini ifloslantirib, tevarak-atrofdagi yashovchilar uchun ham malum xavf tug'diradi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ish sharoitini yaxshilash va baxtsiz hodisalarni kamaytirishning birdan-bir yo'li sanoat korxonalari sexlarini iloji boricha mexanizatsiyalashtirish, og'ir ishlarni robot va avtomatlashtirilgan vositalar zimmasiga yuklash sexlardagi umumiy ishlarni avtomatlashtirishga erishishdir.

Mexanizatsiyalashtirish hozirgi vaqtda amalga oshirish mumkin bo'lgan jarayon bo'lib, birinchidan, ishchilarni og'ir jismoniy mehnatda qutqaradi, bu esa o'z navbatida ish joylaridagi ishchilar sonini qisqartirish va baxtsiz hodisalarni kamaytirish imkoniyatini beradi.

Hozirgi vaqtda boshlang'ich xom ashyoni ishlatish uchun uzliksiz berib turish ishlarini mexanizatsiyalashtirish mexnatni muxofaza qilish nuqtai nazaridan juda muxim hisoblanadi. Bundan tashqari ishchi uchun eng xavfli ish jarayonlarini, masalan, temirchilikda bolg'ish, presslash ishlari va boshqalarni mexanizatsiyalashtirish yaxshi natija beradi.

Radiaktiv moddalar bilan bog'liq ish jarayonlarini robotlar bajarishini shart qilib qo'yish kerak.

Zamonaviy texnologiyalarda ko'gina ishchi uchun noqulay va zararli moddalar ajralish jarayoni kuchli bo'lgan ishlar, masalan, eritilgan metallarni xar xil qoliplarga quyish, yengil va yuk avtomashinalari kuzov va kabinalarini elektr payvandlash ishlari, bo'yash va muxofaza qoplamalari bilan qoplash, detallarga issiqlik bilan ishlov berish, shtampovka, preaalash va boshqa ishlarni robotlar bajaradi bundan tashqari og'ir yuklarni ortish va tushirish ishlari xam mexanizatsiyalashtirilgan.

Avtomatlashtirilgan tizimlarni ancha katta tezlikda xarakat qilishi, ularning ishlash maydoni kengligi va ish turlarining xilma-xilligi, ular ishining xavfli tomonlarini belgilaydi. Bunday tizimlarni tayyorlash va o'rnatish ishlarida xavfsizlikni taminlash ular tuzilishining asosini tashkil qiladi. Bundan tashqari maskur tizimlar ishlatilayotgan yerlarga yaqin joylashgan uchastkalarda ishlayotganlar uchun xam bum malum xavf tug'diradi.

Paxta tozalash korxonalarida ishlatiladigan mashina va mexanizmlarga qo'yiladigan asosiy talablar ularning ishchilar uchun xavfsizligi pishiq va mustaxkamligi xamda ishlatishning osonligi bilan belgilanadi .ularning xavfsizligi standartlar tizimlari bilan belgilanadi.

Mashina va mexanizmlar xavfsizligini taminlash uchun ,loyixalash jarayonida uning qanday ish bajarishini xisobga olgan xolda, ish bajaruvchi qismlarini joylashtirishning ixcham usullarini topish, unga shakl berish va muxofaza qilish qurilmalarini joylashtirish bilan birga olib borish zarur.

Masalan stanokka ornatilgan xavfsizlikni taminlash qopqoqlari faqatgina xavfli joylar to'sig'i bo'lib qolmasdan, balki shovqinni kamaytiruvchi vosita

bo'lib xam xizmat qilsin. Bunga misol tariqasida asboblarni charxlash qurlmasini ko'rsatish mumkin.

Bunda charxning xavfsizligini taminlovchi qurilma bir vaqtning o'zida shamol yordamida charx qirindilarini chiqarib yuborishga mo'ljallangan maxalliy shamollatish vazifani xam bajaradi. Xafilik darajasi yuqori bo'lgan jixozlar, masalan, bosim ostida ishlatiladigan qozonlar, kompressorlar , nasoslar va boshqalardan foydalanayotganda sanoatda xavfsizlikni taminlash nazoratining maxsus talablarini bajarish shart.

Ma'lumki, sanoat korxonalarida mashina va mexanizmlar elektr tokining asosiy estemolchilari xisoblanadi. Bu esa ularning elektr toki tasirini yoqatuvchi elektr xavfsizligi masalalarini xam nazarda tutish kerakligini taqazo etadi. Shuningdek, sex uchastkalarida o'rnatilgan stanoklar elektromagnit to'lqinlari, radiaktiv moddalar tasirida bo'lishi mumkin, albatta, bulardan saqlanish chora-tadbirlari ko'rilishi o'z-o'zidan malum. Bu zararli va xavfli xolatlarda xavo muxitini zararlantiruvchi va ifloslovchi bug'lar, changlar va gazlarni xisobga olish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari xar xil detallarni qirqish, silliqlash borasida ularni ushlab turish qurilmalarining pishiqligi va xare qanday favqulotda xolatlarda xam detalni qo'yib yubormasligini taminlash imkoniyatini berishi kerak.

